

## VII. ISTE'MOL BOZORI

2022 yil yanvar–sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 12301,8 mlrd. soʻmni yoki 2021 yilning shu davriga nisbatan 111,8 foizni tashkil qildi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi 51,9 foizga koʻpayib, 1885,6 mlrd. soʻmni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 15,3 foizni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tovar aylanmasi 11,8 foizga oʻsib, 3449,3 mlrd. soʻmga etdi, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 28,0 foizni tashkil qildi.

Umumiy tovar aylanmasi hajmining 6966,9 mlrd. soʻm yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslarning hisobiga toʻgʻri keldi 2021 yilning shu davriga nisbatan 4,3 foizga oʻsdi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 56,7 foizga teng boʻldi.

### **Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi** (2022 yil yanvar–sentabr )



Chakana savdo - tovarlarni yetkazib berishda ishlab chiqaruvchilardan iste'molchilarga bo'lgan tovar harakati jarayonidagi xo'jalik aloqalarining so'nggi zanjiri bo'lib hisoblanadi. Chakana savdoda moddiy resurslar muomala jarayonidan jamoa, yakka xoldagi, shaxsiy iste'mol sohasiga o'tadi, ya'ni iste'molchilarning mulki bo'lib qoladi. Bu jarayon oldi-sotdi orqali amalga oshiriladi, chunki iste'molchilar o'zlariga zarur tovarlarni o'zlarining pul daraomadlariga almashishadi. Bunda ishlab chiqarish va muomala jarayonining yangi sikli uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'ladi, chunki ushbu xolatda tovarlar pulga aylanadi.

2022 yil yanvar–sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakllari bo'yicha quyidagicha ifodalanadi:

Davlat mulki 7,0 mlrd. so'mni yoki 2021 yilning mos davriga nisbatan 110,4 foizni tashkil qildi.

Nodavlat mulki 12294,8 mlrd. so'mni yoki 2021 yilning mos davriga nisbatan 111,8 foizni tashkil qildi.


#### Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha chakana tovar aylanmasi

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2021 yil yanvar-sentabrga nisbatan, foizda</i>	<i>yakunga nisbatan, foizda</i>
<b>Jami</b>	<b>12 301,8</b>	<b>111,8</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan: mulkchilik shakllari bo'yicha</i>			
davlat mulki	7,0	110,4	0,1
nodavlat mulki	12 294,8	111,8	99,9
undan fuqarolarning xususiy mulki	6 966,9	104,3	56,6

Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Buxoro shahri 33,1 foizni, G'ijduvon tumani 16,9 foizni, Qorako'l tumani 6,6 foizni, Buxoro tumani 7,9 foizni va Jondor tumani 5,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, Olot tumani 2,9 foizni, Kogon tumani 2,5 foizni va Qorovulbozor tumani 1,4 foiz ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

### Hududlarning jami chakana tovar aylanmasidagi ulushi

2022 yil yanvar-sentabr, foiz hisobida



2022 yil yanvar-sentabr oylarida yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi 51,9 foizga ko'paydi. O'z navbatida Peshko' (23,8 marta) va Romitan (3,5 marta) tumanlarida eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi. Buxoro (17,5 foizga) tumanida past o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 370,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 9,3 foizga oshdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 3,0 foizni tashkil etdi. Umumiy ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Buxoro shahri hisobiga to'g'ri keldi va 53,3 foizni tashkil etdi, G'ijduvon tumani 9,4 foizni, Romitan tumani 6,4 foiz tashkil etgan bo'lsa, Buxoro tumanida 7,9 foizi va Shofirkon tumanida 4,4 foizi eng past ulush ko'rsatkichni qayd etdi.

**Chakana tovar aylanmasi hududlar kesimida**  
(umumiy ovqatlanishni qo‘shgan holda)


	<i>Jami</i>		<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2021 yil yanvar-sentabrga nisbatan, foizda</i>	<i>ming so‘m</i>	<i>2021 yil yanvar-sentabrga nisbatan, foizda</i>
<b>Viloyat bo‘yicha</b>	<b>12 301,8</b>	<b>111,8</b>	<b>6 186,5</b>	<b>110,0</b>
Buxoro sh.	4 090,3	1173	14 311,9	115,8
Kogon sh.	450,7	110,5	7 164,7	108,6
<i>tumanlar</i>				
Buxoro	967,1	114,0	3 082,8	112,3
Vobkent	747,5	110,9	5 176,6	109,2
Jondor	659,0	106,8	4 476,9	105,0
Kogon	309,2	106,9	3 789,1	104,8
Olot	360,4	112,4	3 537,0	111,0
Peshko‘	399,5	122,7	3 133,1	120,7
Romitan	725,1	110,2	4 019,3	108,4
Shofirkon	540,1	113,7	2 957,6	112,0
Qorako‘l	808,1	105,5	4 668,4	103,6
Qorovulbozor	171,5	108,4	8 933,5	105,6
G‘ijduvon	2 073,4	106,3	12 327,0	104,9

Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanish tashkilotlarini qo‘shgan holda) aholi jon boshiga 10,8 foizga ko‘payib, 6186,5 ming so‘mni tashkil etdi (2021 yil yanvar-sentabr oylarida 4997,2 ming so‘mni tashkil qilgan edi). O‘rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko‘rsatkichlarni Qorovulbozor tumani (8933,5 ming so‘m), Buxoro shahri (14311,9 ming so‘m) va G‘ijduvon tumanida (12327,0 ming so‘m), eng past ko‘rsatkichlarni esa Shofirkon tumanida (2957,6 ming so‘m), Olot tumanida (3537,0 ming so‘m) va Peshko‘ tumanida (3133,1 ming so‘m) qayd etdi.

### Umumiy ovqatlanish tovar aylanmasi, (mln.so'mda)



### Hududlarning umumiy ovqatlanishdagi ulushi, foizda




Ovqatlanish tashkilotlari tovar aylanmasi aholi jon boshiga 186,4 ming so'mni tashkil etdi. O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Buxoro shahri (690,9 ming so'm) va Qorovulbozor tumani (280,3 ming so'm) kuzatildi.

2022 yil yanvar–sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 8212,6 mlrd. so‘mni yoki 2021 yilning shu davriga nisbatan 141,5 foizni tashkil qildi.

Umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 2,3 martaga ko‘payishi kuzatilib, hajmi 2981,5 mlrd. so‘mni tashkil etganini ko‘rish mumkin.

Xususan, ulgurji savdo tovar aylanmasi hajimda katta ulushga ega bo‘lgan Buxoro shahri (34,1 foiz), Vobkent tumani (16,2 foiz), Peshko‘tumanida (9,9 foiz) tashkil etgan bo‘lsa, Qorako‘l tumani (1,3 foiz), Olot tumanida (0,4 foiz) va Qorovulbozor tumani (0,8 foiz) ulush bilan eng past ko‘rsatkichni qayd etdi.

**Buxoro viloyati hududlarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, foizda**



Kichik korxon va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 15,6 foizga oshib, 523,1 mlrd. so‘mga va umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 63,7 foizni tashkil qildi.

### Ulgurji savdo tovar aylanmasi hududlar kesimida

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>	<i>2021 yil yanvar-sentabrga nisbatan, foizda</i>
<b>Viloyat bo‘yicha</b>	<b>8 212,6</b>	<b>100,0</b>	<b>141,5</b>
Buxoro sh.	2 804,1	34,1	133,3
Kogon sh. tumanlar	235,0	2,9	163,8
Olot	36,5	0,4	163,5
Buxoro	248,6	3,0	112,9
Vobkent	1 326,5	16,2	153,4
G‘ijduvon	837,3	10,2	120,6
Kogon	506,3	6,2	127,5
Qorako‘l	108,4	1,3	2,0 m.
Qorovulbozor	62,7	0,8	109,2
Peshko‘	810,7	9,9	4,0 m.
Romitan	445,5	5,4	195,5
Jondor	442,2	5,4	81,1
Shofirkon	348,8	4,2	128,8